

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

L.T.Galimullina	Internal form of phraseological units with the components of precious stones and metals in the english language	1213
A.O.Oxunov	Ingliz va O'zbek tillarida undov so'zlar (interjection)ning ifodalanishi	1217
M.U.Mamadjanova	Linguocultural features of the epithets	1221
M.U.Mamadjanova	Tilshunoslikda epitetning lingvistik tabiati haqidagi turli qarashlar	1224
M.M.Umaralieva	The significant role of lingua-psychological, pedagogy-didactic, and methodological factors in the planning and implementation of self-directed programs	1227
Sh.A.Igamberdiyeva, A.G.Abdukadirov	Bit-dars texnologiyasi asosida ijodiy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligi tahlili	1232
Sh.Z.Xolmatov	So'z urg'usining nazariy tavsifi va ahamiyati qiyosiy aspektida	1236
M.M.Umaralieva	A proficient approach to self-directed learning	1241
Sh.F.Latipov	Grammatical lacunas as markers of cultural and linguistic identity	1246
Sh.F.Latipov	Lingvistik lakunani aniqlash haqida ayrim tushunchalar	1249
A.A.Qosimov	Linguo-pragmatic typology of metaphors: the intersection of language and pragmatics	1252
A.A.Qosimov	A linguo-cultural approach to metaphor classification: unveiling cultural concepts through figurative language	1258
M.G'.Zaylobidinova	Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning ta'limni modernizatsiyalash orqali hayotiy ko'nikmalarini oshirish	1264
Д.Ш.Ибрагимова	Сущность и структура иноязычной коммуникативной компетенции будущих учителей	1268
Д.Ш.Ибрагимова	Эффективность использования театрализации в обучении студентов устойчивым базовым английским фразам для чрезвычайных ситуаций	1272
Д.Ш.Ибрагимова, Й.Х.Музаффархонов	Использование театрализации в процессе формирования речевых навыков у студентов	1278
M.N.Abdulimova	Theory of cognitive and conceptual metaphors	1282
M.N.Abdulimova	Analysis of metaphors used in political texts	1286
S.O'.Shermamatova	Analyses of J.D.Salinger's works	1291
X.Zikiryoxonovna	Falsafiy-psixologik romanda tush motivi	1295
X.Z.Umarova	Maktublar – qahramon qalb oynasi	1298
Sh.A.Igamberdiyeva, A.G.Abdukadirov	Significance of motivation in developing students' creative cooperation skills	1301
S.S.Usmanova	Jadidchilik va adabiy muhit xususida	1304
V.Abdurakhmanov	Classification and description of the main alternative issues in social life	1307
R.M.Turdimatova	The intricacies of irony: types and examples	1311



UO'K: 81'367:811.111+811.512.133

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA UNDOV SO'ZLAR (INTERJECTION)NING
IFODALANISHI

ВЫРАЖЕНИЕ МЕЖДОДЕКЦИЙ В АНГЛИЙСКИЙ И УЗБЕКСКИЙ

EXPRESSION OF INTERJECTIONS IN ENGLISH AND UZBEK

Oxunov Asilbek Olimjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti, Ingliz tilini o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya

Bizga ma'lumki, undov so'zlar insoniyat rivojidadagi dastlab paydo bo'lgan birliklar qatoridagi hisoblanadi. Mazkur maqolada undov so'zlarning kelib chiqishi ingliz va o'zbek tillarida ifodalanishi tahlil etiladi. Xususan, ingliz va o'zbek tillarida undov so'zlarning tuzilishi, sintaktik vazifasi kabi jihatlari o'rganilgan. Undov so'zlar guruhlarga ajratilgan va misollar bilan izohlangan.

Аннотация

Мы знаем, что восклицания относятся к числу первых единиц, появившихся в развитии человечества. В данной статье анализируется происхождение восклицательных знаков в английском и узбекском языках. В частности, изучены такие аспекты, как структура и синтаксическая функция восклицательных знаков в английском и узбекском языках. Восклицательные слова разделены на группы и пояснены примерами.

Abstract

We know that exclamations are among the first units that appeared in the development of humanity. This article analyzes the origin of exclamations in English and Uzbek languages. In particular, aspects such as the structure and syntactic function of exclamations in English and Uzbek languages have been studied. Exclamatory words are divided into groups and explained with examples.

Kalit so'zlar: undov so'z, his-hayajon gap, his-hayajon, undov belgisi.

Ключевые слова: междометие, восклицательные предложения, восклицательный знак, восклицательный знак.

Key words: interjection, exclamative sentences, exclamation, exclamation mark.

KIRISH

Undov so'z (interjection)lar deyarli kundalik muloqot jarayonida ishlatiladi. Ular mulooqtda alohida ma'no kasb etmasa-da, axborot yetkazish xususiyatiga ega. Odatda bunday xabarlar fikr-g'oya yoki o'ylar emas, balki hissiyotni bildiruvchi so'zlardir. Undov so'zlar tilshunoslikda ko'p muhokamalarga sabab bo'lmaydi, lekin tilda o'z ahamiyatini yo'qotmaydi va yo'qolib ketmaydi. Chunki tilning ichki boyligini ko'rsatuvchi jihatlardan biri shu va shunga o'xshash elementlarning mavjud bo'lishidir. Undov so'zlar (interjection)lar masalasida bo'ladigan muzokara bu – ular alohida so'z yoki so'z-gap ekanligidir. Grammatik kitoblarda undov so'zlar ekspressive gaplar bilan ishlatilib, his-hayajon gaplar sirasiga kiritilgan (bazi kitoblarda kiritilmaydi).

Azob, hayrat, jahl, huzur kabi hissiyot va tuyg'ularni ifodalashda ishlatiladi.

Ko'plab tilshunos olimlar undov so'zlarni tilning ibtidosida odamlar tomonidan aytilgan birinchi so'zlar bo'lishi mumkinligini etirof etadilar. Bunga sabab undov so'zlarning emotsionalligi va talaffuz qilishning osonligidir. Nutqda bu kabi so'zlarning ishtirok etmasligi, tilni dag'al bo'lishi va hissiy emotsionallikni pasaytirishiga olib kelishini tasavvur qilish qiyin emas. Masalan: ingliz tilidagi oddiygina **"Ouch"** so'zini olaylik. Agar ushbu fraza bo'lmaganda edi, "Jonim og'riyapti" deyishga to'g'ri kelardi. Bu aytishga uzun birikma va noqulay, bir tomondan kulgili hamdir.

Interjection termini taxminan XIII asrlarda lotin tilidan kirib kelgan. (**Inter orasida** va **jacere irgitmoq**) Leksikograflar *interjection* ni quyidagicha ta'riflaydi:

Hayqiriq va hissiyotni ifodalovchi birlik;

Grammatika. His-tuyg'uni ifodalaydigan va so'z turkumi bo'lib kela oladigan birlik;

Demak undov so'zlarga ikki tomonlama yondashamiz. His-tuyg'u tomondan aytaylik *Oh!* yoki *Phooey!* so'zlari. Ularni bayon qilish uchun oldindan tayyorgarlik kerak emas. Ularni rejadan tashqari, yoki o'zimiz istamagan holda ham aytib yuboramiz. Vaziyat shuni taqozo etadi.

Oh! Finally we have finished the hometask!

Phooey! This old man is driving Prado!

Lingvistik tomonini oladigan bo'lsak, undov so'zlar boshqa gap bo'laklari bilan aloqaga kirishmaydi. Bir yoki ikki so'zdan iborat shaklda o'zlari gap hosil qiladi va bunday gaplar his-hayajon gaplar hisoblanadi.

Aslini olganda his-hayajon gaplar mavzusi munozarali mavzu. Chunki olimlar o'z nazariyalarini haqiqat deb bilgan va fanga kiritgan. Bunday nazariyalar afsuski talaygina. Xuddi shunday ichki masalalardan biri bu – undov so'zlar va his-hayajon gaplar o'rtasidagi farqdir. Ba'zi tilshunoslar ularning bir-biriga bo'g'liqligi yo'qligini aytsa, ba'zilar undov so'zlar his-hayajon gaplarning bir turi ekanligini aytadi. Agar biz bu ikkisini ikkita konsepsiya deb olsak ular o'rtasidagi farq nimada? Quyida bir qator olimlarning fikrlarini keltirib o'tamiz.

"Ma'no anglatmaydigan, stress yoki biron bir hissiyot natijasida tasodifan aytilgan undov so'z hissiyot bilan aytilgan, oddiy so'zdan tashkil topgan undov so'z o'rtasida farq juda oz." – deydi, Eckersley va Eckersley.⁷⁷

Lug'atlardan *exclamation* atamasining izohini ko'rganda, his-hayajonni ifodalovchi undov so'zlarga ishlatilishini ko'rishimiz mumkin. Tildagi har qanday so'z his-hayajon bilan aytilishi mumkin. Bu degani har qanday so'z undov so'z bo'lishi mumkin.

A: Mary said it was "ordinary".

B: **Ordinary!**

Bu gapdagi *Ordinary* his-hayajon gap. Demak shu yerda his-hayajon gap va undov so'zning farqini ko'rish mumkin:

Undov so'zlar o'zi alohida bir so'z turkumi hisoblanadi. Lug'atlarda ulardan oldin *int.* yoki *interj.* belgilari qo'yiladi. His-hayajon gapidagi so'zlar esa istalgan so'z turkumidan bo'lishi mumkin. Ular suhbat jarayonida vujudga keladi, undov so'zlar esa avvaldan mavjud va suhbatda shundayligicha foydalaniladi. Yana bir farq undov so'zlar faqat bitta so'zdan tashkil topadi, his-hayajon gapdagi so'zlar esa bir nechta bo'lishi mumkin. Demak, har qanday undov so'zlar his-hayajon gap bo'lishi mumkin, lekin hamma his-hayajon gaplari ham undov so'z bo'la olmaydi.

S.Gramley va K.Pätzold ga ko'ra undov so'zlar *Good morning!* kabi so'zlarni ham o'z ichiga olishi kerak.⁷⁸ Lekin bu vaziyat uchun asos yo'q. Chunki Amerikalik olim Ch.Fries bunday frazalarni alohida salomlashishlar guruhiga mansub ekanligini aytgan edi. Salomlashish frazalari ham undov so'zlarga o'xshab his-hayajon bilan aytiladi va his-hayajon gaplarda ishlatiladi.⁷⁹

Undov so'zlar boshqa so'z turkumlari kabi eskirishi va yangilanishi mumkin. Yangi undov so'zlar asosan madaniyati rivojlangan tillarda paydo bo'ladi. Ular komik, musiqa va kinolarda qo'llanilib, boshqa tillarda ham aynan yoki muqobil variantini topishi mumkin. Yosh shahar aholisi undov so'zlar yaratishining o'chog'i, deb aytish mumkin. Undov so'zlarning yasaliq manbalaridan biri bu – boshqa tillardan olishdir. Shu tarzda undov so'zlar jamiyat bilan birga yangilanib boraveradi.

Undov so'zlarning tuzilishi. Undov so'zlar his-hayajon bilan aytilgan tovushlar birlashmasi, so'zlar, maxsus frazalardir. Yozuvda undov belgisi bilan yoziladi.

Wow! This looks wonderful!

Ba'zi undov so'zlar ot kategoriyasiga ko'ra turlanish xususiyatiga ega, ya'ni ko'plik shaklda ham ishlatiladi: *balls! fiddlesticks! havers! heads up! horsefeathers! rats! spells!*

⁷⁷ Eckersley J. R., M.Eckersley / A Comprehensive English Grammar for Foreign Students // Longman, London.1966 P. -316.

⁷⁸ Gramley S., Patzold K./ A Survey of Modern English // Routledge, London and New York 1996. P. -125.

⁷⁹ Fries Ch.C./ The Structure of English // N.Y., 1952.

TILSHUNOSLIK

Undov so'zlarning yana bir morfologik jihati G. Curme aytganidek ularning o'ziga xos xususiyati yo'qligidir.⁸⁰ Bunday so'zlar tuslanish xususiyatiga ega bo'lmagan so'zlar kategoriyasiga kiradi. Ba'zan undov so'zlar ikki mustaqil so'zdan tashkil topishi mumkin:

Oh, God! Goodness gracious!

Ingliz tilidagi undov so'zlarni fonetik, kelib chiqish va boshqa umumiy xususiyatlaridan kelib chiqib ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh *aha! auh! bah! boo! cool! cor! eeeek! eh! gee! gee-whiz! ha! ha-ha! ho! hoey! hoo-ha! hoy! huh! hullo! hum! oho! ooh! oops! uh! uh-huh! uh-uh!* kabi bir yoki ikki bo'g'inli so'zlardan tashkil topgan. Bunday so'zlar suhbatdan tashqarida ma'noga ega emas, lekin nutq jarayonida aniq bir maqsadga ega frazalar hisoblanadi.

Ikkinchi guruh undov so'zlari boshqa so'z turkmidan olingan so'zlar: *begone! behold! bingo! blast! blimey! bother! bullshit! crazy! crikey! damnation! The devil! doggone! god! good! goodness! gracious! grand! hell! honestly! indeed! look! nonsense! silence! so! sod! soft! son of a bitch! son of a gun! upon my soul! up with! upsy-daisey! well! woe! no wonder!*

Ular so'z yoki fraza shaklda bo'lib, kontekstda boshqa ma'no borliqda boshqa ma'no bildiradi. Bunday undov so'zlar qasamlar, ogohlantirishlar, buyruqlar, ko'rsatmalarda ishlatiladi.

Undov so'zlarning sintaktik vazifasi.

Interjection so'zining ma'nosiga ko'ra undov so'zlar tilning boshqa birliklari bilan aloqaga kirishmaydi. Odatda gapning boshida keladi, undov belgisi bilan ajratiladi va yangi gap boshlanadi. Mana shu keyingi gapga o'z tasirini ko'rsatib turadi.

Wow! Look at those pretty puppies!

Lekin bu umumiy xulosa emas. Undov so'zlar gapning bir qismi bo'lib ham xizmat qilishi mumkin.

Oh! I did not realize that.

Oh, I did not realize that.

Birinchi gapdagi undov so'zlar deyarli mustaqil bir gap. Talaffuzda ikkinchi gapga nisbatan ko'proq to'xtalish (pauza) bo'ladi. Bunda undov so'zlar gapdagi hech bir so'zga grammatik yoki sintaktik jihatdan bog'lanmagan.

Ikkinchi gapda esa undov so'zlar gapning mustaqil elementi va gapga biroz bo'lsa ham bog'langan. Bunda undov so'zlar vergul bilan ajratiladi. Undov so'z va gap o'rtasida talaffuzda ko'p to'xtalish bo'lmaydi. Gapning oxirida undov belgisi qo'yilmaydi.

Oh, you wanted to add something. I am sorry to have interrupted you.

J. Sledd undov so'zlarni gapning ravishi deb ataydi.⁸¹

Gosh, I've forgotten my wallet.

Undov so'zlar gapning oxirida ham kelishi mumkin. Bunda undov so'z gapdan vergul bilan ajratiladi.

They have arrived too late, **alas!**

Undov so'zlarning ma'nolari.

Shubhasiz, undov so'zlar o'z ma'nosiga ega. Yo'qsa, bu til ummonida o'z o'rnini topa olmagan bo'lardi. Bu ma'nolar shu jihati bilan muhimki, yoki odamlar bunga o'rganib bo'lgan va boshqa so'z bilan ifodalay olmaydi yoki bular tabiatdagi tovushlarga taqlid so'zlar (onomatopoeic) odamlar muqobil variantini topa olmaydi. Ikkala fikr ham to'g'ri bo'lishi mumkin. Shunday ekan undov so'zlar ma'lum bir tilda va ma'lum bir vaziyatda o'ni borligi uchun ham o'z ma'nosiga ega bo'lgan. Tilda boshqa bir so'z yoki tovush o'rnini bosa olmas ekan hamma narsaning o'z ma'nosi bor. Ba'zi bir undov so'zlar ma'noga ega emas, degan gaplar noto'g'ri. Vladimir Ž. Jovanović turli tillardagi undov so'zlarni quyidagicha guruhladi:⁸²

G'azab: *damn! damnation! the devil! doggone! fuck! ha! hang it! hell! hunh! rats! shit! what! zounds!*

Achchiqlanish: *bother! damn! damnation! deuce! drat! drot! mercy! merde! oof! ouf(f)! ouch! rot! son of a bitch! spells! tut! tut-tut! zut!*

Ma'qullash: *hear! hear! hubba-hubba! hurrah! keno! olé! so!*

⁸⁰ Curme G. O. English Grammar, Barnes & Noble Books, New York 1947 P 149.

⁸¹ J. Sledd /A Short Introduction to English Grammar// Scott, Foresman and Company, Chicago 1959.

⁸² Vladimir Ž. Jovanović /The form, position and meaning of Interjections in English // 2004.

Mensimaslik: *bah! boo! booh! faugh! hum! humph! hunh! paff! paf! pah! pfui! pho! phoh! phoo! phooey! pish! poof! pouf! pouff! pooh! prut! prute! pshaw! puff! poff! quotha! rot! sho! shoo! shuh! shah! soh! tcha! tchah! tchu! tchuh! tuh! tush! tusch! tusche! tuch! yech! zut!*

Xursandchilik: *ah! ach! coo! coo-er! goody! goody goody! whacko! wacko! whizzo! wizzo! yippee! yip-ee!*

Jirkanish: *aargh! bah! faugh! fuck! gad! humph! pah! phew! phooey! pish! pshaw! pugh! rot! shit! shoot! ugh! yech! yuck!*

Ishtiyiq: *hubba-hubba! wahoo! zowie!*

Qo'rquv: *eeeeek! oh! oh, no!*

Sabrsizlik: *chut! gah! pish! pooh! pshaw! psht! pshut! tcha! tchah! tchu! tchuh! tut! tut-tut! why! zut!*

Jahl qilish: *here! here! why!*

Jahlini chiqarish: *cor! corks! doggone! hell! hoot! lord! lor! lor! lors! lordy! lord me! merde! sapperment! shit! upon my word!*

Zavqlanish: *heyday! hurrah! ole! whee! whoop! whoopee! yippee!*

Og'riq: *ah! oh! ouch! ow! wow! yipe! yow!*

Achinish: *alas! dear! dear me! ewhow! lackaday! lackadaisy! las! och! oche! wellaway! welladay! welliday!*

Rohatlanish: *aha! boy! crazy! doggone! good! heigh! ho! wow! yum! yumyum!*

O'zini yengil his qilish: *whew! whoof!*

Qayg'u: *alas! ay! eh! hech! heck! heh! lackaday! lackadaisy! las! mavrone! och! oche! wellaway! welladay! welliday! wirra!*

Ajablanish: *ah! alack! blimey! boy! caramba! coo! cor! dear! dear me! deuce! the devil! doggone! gad! gee! gee-whiz! golly! good! goodness! gracious! gosh! ha! heck! heigh! heigh-ho! hey! heyday! ho! hollo! hoo-ha! huh! humph! indeed! jiminy! lord! man! mercy! my! nu! od! oh! oho! oh, no! phew! say! shit! so! son of a bitch! upon my soul! well! what! whoof! whoosh! why! upon my word! wow! yow! zounds!*

Hamdardlik: *now! tsk!*

G'alaba: *aha! ha! hurrah! ole! so!*

Qiziqish: *blimey! crazy! gee! goodness! gosh! ha! heyday! oh! what! wow!*

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Fries Ch. C. / The Structure of English // N.Y., 1952. P178
2. Eekersley J. R., M.Eekersley / A Comprehensive English Grammar for Foreign Students // Longman, London, 1966. P240
3. Gramley S., Patzold K. / A Survey of Modern English // Routledge, London and New York 1996. P138
4. Sledd J.A. / Short Introduction to English Grammar // Scott, Foresman and Company, Chicago 1959. P201
5. Vladimir Ž. Jovanović / The form, position and meaning of Interjections in English // 2004, P148